

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

## IMOM AT-TERMIZIY HAZRATLARINING MADANIY MEROSSI

T. Xamroyev

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

TTKT fakulteti 23-01guruh talabasi

### Annotation:

Ushbu maqolada Imom at-Termiziyaning hayoti, qay darajada yetuk inson ekanligi, ta'lim olgan madrasalari, ibratli hayat yo'llari, islam dini olamida tutgan o'rni haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Murshid, komil inson, yetuk alloma, chuqur ilm sohibi, mutaffakir, muhaddis.

Yurtimiz tarixiga nazar solar ekanmiz, uning ma'naviy hayatida buyuk allomalarimizning hayat yo'llari va yaratgan asarlari muhim o'rinn tutganligiga guvoh bo'lamic. Jahonga mashhur allomalarining Markaziy Osiyodan yetishib chiqqanligi bunga dalildir. Xususan, ularning asarlari butun dunyo mamlakatlari ilm-fanida dasturi amal bo'lib xizmat qilayotganligi sababli allomalarimizning jahon ilm-fan sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rniga yuqori baho berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg'iloni, Iso Termiziyy va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamashshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi ko'plab daholar nomi jahon sivilizatsiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan<sup>1</sup>

O'zbekiston zamini buyuk allomalarini yetishtirgan va dunyo tamadduniga beباو ما'naviy xazina tuhfa etgan zamindir. Bu zamindan islam ilmi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk muhaddisu faqihlar, mutasavviflar, ijodkorlar yetishib chiqqan. Mintaqamizga islam dini kirib kelishi ma'rifiy takomil yuqori bosqichga chiqishiga, yuksak tamaddun shakllanishiga asos bo'ldi. Islam dinining ezgulikka , bunyodkorlikka yo'g'rilgan g'oyalari ilm ahlini g'oyaviy oziqlantiradi,

<sup>1</sup> Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. – T.: O'zbekiston, 2018. 3-bet



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mazmunan ilhomlantirdi. Mintaqamiz allomalari islom ilmlari bo'yicha sermahsul ilmiy ijod qildi.

Ibnul Asir Jomeul usul kitoblarida Imom Termiziyning to'liq ismini Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Musa ibn Zohhak al-Bug'iy as-Sulamiy at-Termiziy deb keltiradi. "Abu Iso" degan kunyasi bilan mashur bo'lgan. At-Termiziy deyilishining sababi Movarounnahrdagi ma'lum va mashhur shaharga nisbatan aytildi. Al-Bug'iy deyilishining sababi o'zlari tug'ilgan Termiz qishloqlaridan biriga nisbatan aytildi.

Tug'ilishi va vafoti: hijriy 209-yili tug'ilgan va 279-yilda dushanba kuni, rajab oyining 13-kuni Termizda vafot etgan. Ba'zilar ismlaridan keyin "zarir" deb ham qo'shib qo'yadi. Zarir degani ko'zi ojiz degan ma'noni anglatadi. Chunki umrlarining oxirida ko'zlari ko'rmay qolgan. Imom Hokim men Umar ibn Ilkdan eshitdim Imom Buxoriy vafot etdi. Endi Xurosonda ilmda, hifzda, taqvoda va zuhdda Abu Isoga o'xshashi qolmadi. Juda ko'p yig'laganidan ko'zlari ojiz bo'lib qoldi.

Ulamolarning maqtovlari: Samoniy Ansob kitobida Imom Termiziy hech qanday raqobatsiz zamonasining imomi edi. Zehn o'tkirligida, yodlash qobiliyat kuchliligida zarbul masal edi.

Imom Buxoriy, ustozi bo'lsalar ham u kishiga qarata sen foida olganingdan ko'ra men ko'proq foida oldim degan.

Abul Fido Al-Muxtasar kitobida, Imom, Hofiz, ko'zi ojiz, hadis ilmida ergashilinadigan mashhur hadis olimlaridan edi.

Juda ko'p kitoblar ta'lif etgan. Yozgan kitoblari ham u kishini na qadar yetuk olim ekanligini, ilm doirasing ham kengligiga dalolat qiladi. Ular:

1. Kitabut tarix
2. Sunani termiziy
3. Kitabul ilal
4. Ash-Shamoil
5. Asmaus sahoba
6. Kitabul jarh va ta'dil
7. Kitabuz zuhd
8. Kitabul asma val kuna
9. Kitabut tafsir
10. Rubaiyat fil hadis
11. Al-Illalus sag'ir
12. Kitabun fil asaril mavqufa



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Imom Termiziy rohmatullohi alayh dastlabki ilmni tug'ilib o'sgan joyning shayxlaridan olgan. 235-yillar atrofida 25 yoshidaturli xil shaharlar Xuroson, Iraq, Hijoz va boshqa diyor olimlaridan ilm tahsil qilganlar. O'z o'rnidagi eng buyuk olimlardan dars olgan. Natijada zamonasining yetuk imomlaridan bo'lib yetishdi. Xususan mashhur ustozlaridan saxix to'plam sohibi Imom Muslim ibn Hajjoj Qushayriy, Sunani Abu Duvud sohibi Sulaymon ibn Ash'aslar bilan ko'rishib ilm olgan va hadis rivoyat qilgan. Hadislar va roviylaring holatini esa eng katta ustozi hadisda mo'minlarning amiri deb atalgan Muhammad ibn Ismoil Buxoriydan olgan. Ancha muddat ustozini etagini tutib juda ko'p ilmu fazlidan bahramand bo'lgan. Qolaversa Abdulloh ibn Abdurrahmon dorimiydan va Abu Zura Roziydanlardan ham ilm olgan.

Mintaqamizdan yetishib chiqqan Imom Termiziyning hayoti, ijodiy va ilmiy faoliyati davrida yaratgan asarlari, ilm talabida boshqa yurtlarga chiqishlari va zamondoshlari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish tariximizning o'rganilmagan sahifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>2</sup>

Shayx Abdussalom Muborakfuriy o'z asarida keltirishicha, bolaligidan o'ta ziyorakligi, xotirasining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan. Diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan o'rgangan, bu boradagi bilimlarini yana-da oshirish uchun ko'pgina Sharq mamlakatlariga borgan. Ko'p yillar Iraq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog'ida qiroat ilmi, bayon, fiqh, tarix, ayniqsa o'zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo'yicha o'sha davrning yirik olimlaridan ta'lim olgan. Mashhur muhaddislardan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Said, Is'hoq ibn Muso, Mahmud ibn G'aylon va boshqalar uning ustozlari bo'lgan.

Imom Termiziy ustozi Imom Buxoriy bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo'lган va ikki alloma 5 yil birgalikda yashagan) hadisning matninigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib yetganini e'tirof etadi. O'z navbatida Imom Buxoriy shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: "Sen mendan babra topganidan ko'ra men sendan ko'proq babra topdim", degan. Bu Termiziyya berilgan juda katta baho edi.

Termiziy o'z ijodiy va ilmiy faoliyati davrida bir qancha asarlar yaratdiki, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Ishonarli to'plam" ("Al-Jome as-sahih"),

<sup>2</sup> <https://wikipedia.com>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

“Payg‘ambar alayhissalomning shakl va sifatlari” (“Ash-Shamoil an-nabaviya” yoki “Ash-Shamoil an-nabiy sallallohu alayhi va sallam”), “Hadislardagi illatlar” (“Al-Ilal fil-hadis”), “Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola” (“Risola fil-xilof val-jadval”) “Tarix” (“At-Ta’rix”) “Zohidlik kitobi” (“Kitob uz-zuhd”), “Ismlar va kunyalar kitobi” (“Kitob ul-asmo val-kuno”) kabi asarlar shular jumlasiga kiradi. Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, “Al-Jome as-sahih” bo‘lib, 6 ta ishonchli hadislар to‘plamidan biridir. Ushbu asar ilmiy manbalarda “Jome at-Termiziy”, “Sahihi Termiziy”, “Sunani Termiziy” nomlari bilan atalib, musulmon olamida yuksak qadrlanadi. Termiziyning muhim asarlaridan yana biri “Ash-Shamoil an-nabaviya” Muhammad (alayhissalom)ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatlari, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o‘z ichiga qamragan manbadir. Asar fors va turk tillariga tarjima qilingan. “Ash-Shamoil an-nabaviya”ning 1-qismida keltirilgan hadisi shariflar payg‘ambarning suvrat (tashqi qiyofasi)iga, 2-qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyosi-yu, axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag‘ishlangan.<sup>3</sup>

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida “al-Jomi’ as-sahiyh” (“Ishonchli to‘plam”) eng asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, “al-Jomi’ al-kabiy”, (“Katta to‘plam”), “Sahiyh at-Termiziy”, “Sunan at-Termiziy” (“Termiziy sunnatlari”) kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyning yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya’ni qariyb oltmis yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Ushbu asar qo‘lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o‘zimizda, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida “Al-Jomi’ as-sahiyh” bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini ko‘rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo‘lib, ulardan ibn al-Arabi (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo‘lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbiliyning “Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy” nomli 13 juz’ (qism)dan

<sup>3</sup> Ayupov. O. Dunyo siyosat jamiyat. – Guliston, 2015. 96-bet



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yidda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham “Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy” deb ataladi. To‘rt juzdan iborat bo‘lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi “Qut al-mug‘taziya la Jomi’ at-Termiziy” (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Bulardan tashqari Muhammad ibn Abduqodir Abu at-Tayyib al-Madaniyning “Sharh Sunan at-Termiziy”, Ahmad Muhammad Shokirning “Tahqiq va sharh Jomi’ at-Termiziy” (o‘ndan ikki qismi 1937 yidda Mustafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyning “Maorif sunan sharh sunan at-Termiziy” (uning bиринчи qismi 1963 yilda Pokistonda nashr kilingan), Siroj Ahmad as-Sarhandiyning “Sharh sunan at-Termiziy” nomli forscha sharhi, shuningdek Rashib Ahmad al-Kanuhiyning “Al-kavkab ad-durriy ala at-Termiziy” (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyning ikki juz’dan iborat “Al-Urf ash-shaziy ala Jomi’ at-Termiziy” (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy as-Sanadiyning (u 1138 yilda vafot etgan) “Hoshiya ala sunan at-Termiziy” kabi sharhlarini ko‘rsatish mumkin.

Avval eslatib o‘tganimizdek, hijriy uchinchi asr (melodiy to‘qkizinchasi) hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblanadi. Dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi allomalarining sermabsul faoliyatni katta ahamiyat kasb etadi.

O‘z ustozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim asos solgan xayrli ishni Imom at-Termiziy chuqur mas’uliyat va katta idrok bilan davom ettirdi. Hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo‘sib, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muhaddislardan biri darajasiga ko‘tarildi. Abu Imom at-Termiziyning shoh asari bo‘lmish “Al-Jomi’ as-sahiyh” olim mashaqqatli mehnatining mahsuli sifatida hadis ilmida katta ahamiyatga ega. Eng avvalo shuni aytish kerakki, muallif o‘z asarini alohida-alohida boblarga bo‘ladi, imkonli boricha har bir hadis roviylarini keltiradi. Har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab alohida ko‘rsatadi. Oldinroq biz asarini “As-sunan” (“Sunnatlar”) nomi bilan (“Sunan at-Termiziy”) atalishini ham eslatib o‘tgandik. Bu nom bilan atalishiga asosiy sabablardan biri - unda fiqh masalasiga doir ahkom



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

hadislar juda ko‘p keltirilgan. Shular bilan bir qatorda asarda pand-nasihat, axloqodob, go‘zal xulqu fazilatlar xususida ham juda ko‘p hadisi shariflar keltirilganki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchramaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Imom at – Termiziy hadis ilmida imom Buxoriydan keyingi ulug’ allomalarimizdan biridir. Imom at-Termiziyning “Al – Jome” asari hadis ilmining nodir qo’llanmalaridan biri hisoblanadi. Imom at-Termiziy asarining o‘ziga xos jihat – asarda muallif o‘z maqsadini – bu roviylar haqidami, hadislarning darajasi xususidami, hadislardagi illatlarni bayon qilishdami, fiqhiy boblardagi ma’nolardami – bildirishda ochiq-oydin va tushunarli holda ifoda qiladi. Ya’ni ushbu asar oddiy xalq tilida tushunarli tilda yozilganligi bilan nihoyatda qimmatlidir. Shu bilan bir qatorda olim o‘z kitobida faqat eng to‘g’ri (asahhu) hadislar bilan chegaralanib qolmaydi. U sahih va eng to‘g’ri (asahhu), hasan, zaif, solim (sog`lom), illatli hadislarni ham zikr qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ражабов К, Иноятов С.. Бухоро тарихи. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2016 — 460 bet.
2. Jo’shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Cho’lpon, 2000, -80 b.
3. Ismoilov S.T. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o’rni.
4. Amir Temur o‘gitlari. Toshkent, Navro‘z, 1992 y, 58-bet.
5. Jo‘raev U., Saidjonov Y. Dunyo dirlari tarixi. 154-155-betlar.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 17-tom, Fan, Toshkent, 2001 y
7. Ayupov. O. Dunyo siyosat jamiyat. – Guliston, 2015. 96-bet
8. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. – T.: O‘zbekiston, 2018. 3-bet
9. <https://wikipedia.com>